

MAKTAB O'QUVCHI QIZLAR ORASIDA ERTA TUG'RUQ VA UNI OLDINI OLIISH CHORALARI

Rustamova Ra'no Nasriddinovna

Toshkent shaxar Yunusobod tumani 17- IDUM psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchi qizlar orasida erta tug'ruq, kelib chiqish sabalari hamda o'smirlik davridagi homiladorlikning asosiy sabablari sifatida erta turmush, jinsiy ta'lim va axloqiy tarbiyaning pastligi, moliyaviy muammolar ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: o'sm, erta homiladorlik, tug'ruq, erta turmush, ma'lumotlar.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda 15 yoshgacha bo'lgan o'spirin qizlarda kamida 777 000 tug'ruq holati qayd etilgan. O'smirlarning homiladorligi qashshoqlik, ta'limning past bo'lgan cheklangan aholi guruhlarida ko'proq uchraydi. JSST hisob-kitoblariga ko'ra, so'nggi 20 yil ichida o'smirlarning tug'ruq darajasi dunyo bo'yicha 11,6 foizga pasaygan. Shu bilan birga, ushbu ko'rsatkich bo'yicha hududlar o'rtasida katta farqlar mavjud. Masalan, o'smirlar o'rtasida tug'ilish darajasi Sharqiy Osiyoda 7,1, Markaziy Afrikada esa 129,55 ga yetadi. AQSH, Rossiya, Afrika davlatlari, Osiyo va Yevropaning ayrim davlatlarida 15-17 yoshdagi qizlar o'rtasida erta tug'ruq holatlari o'rtacha har 10 000 nafar qizdan 50-100 tasida uchraydi.

O'zbekistonda o'smirlik homiladorligi — 18 yoshga to'lmagan o'zbekistonlik qizlar orasida uchrovchi homiladorlik holati. Respublikadagi asosiy muammolardan biri. O'smirlik davridagi homiladorlikning asosiy sabablari sifatida erta turmush, jinsiy ta'lim va axloqiy tarbiyaning pastligi, moliyaviy muammolar kabi omillar ko'riladi. Bu borada respublikada asosiy statistika ma'lumotlarining o'rganilishi, ochiqlanishi va qarshi kurash chora tadbirlari 2017-yildan boshlangan. O'smirlar orasidagi tug'ruq holatlari 2020-yilda 1044 tani tashkil etgan bo'lib, 2019-yilga nisbatan 12,7 foizga kamaygan. Hududlar kesimida erta tug'ruqlarning 43,1 foizi Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari hisobiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonda voyaga yetmagan qizlar o'rtasidagi erta tug'ruq holatlari tahlil qilinganda, 2017-yildan boshlab 11 yillik umumta'lim tizimiga o'tilishi bilan erta tug'ruq holatlarining soni pasayishi kuzatilgan. Misol uchun 2016-2017-yillar davomida 15-17 yoshdagi qizlar o'rtasida jami 429 tug'ruq holati qayd etilgan bo'lsa, 2018-2019-yillar davomida ushbu ko'rsatkich 34 foizga kamayib, 284 tani tashkil qilgan.

Erta tug'ruq holatlari sodir etilishi ko'rsatkichining kamayishi holatini umumta'lim maktablarida tahsil olayotgan qizlar soni nisbatiga taqqoslaganda ham ko'rish mumkin:

- 2017-yilda Xalq ta'limi tizimida tahsil olayotgan har 12995 nafar qizga 1 ta tug'ruq (umumiy qizlar soniga nisbatan 0,0076%);

- 2018-yilda tizimda tahsil olayotgan har 15169 nafar qizga 1 ta tug'ruq (umumiy qizlar soniga nisbatan 0,0066%);

- 2019-yilda tizimda tahsil olayotgan har 23666 nafar qizga 1 ta tug'ruq to'g'ri kelgan (umumiy qizlar soniga nisbatan 0,0042%).

11 yillik ta'lim tizimining qaytgani mazkur muammoning mamlakatimiz miqyosidagi asosiy yechimi sifatida baholash mumkin, sababi maktabni tark etgan o'quvchi kollej yoki litseyga borganda o'zining axloqini bemalol, ijtimoiy nazoratsiz transformatsiya qilishi (o'zgartirishi), o'smir muayyan submadaniyatga osongina imitatsiya (taqlid) qilishi mumkin bo'lgan va bu jarayonda uni yangi ijtimoiy guruh shundayligicha qabul qilgan.

Xulosa:

O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi erta tug'ruq va erta turmushning oldini olish, chet elga qatnashga majbur bo'layotgan ayol mehnat migrantlari bilan samarali ishlash, xotin-qizlarning o'z joniga qasb va suiqasd qilishlarini oldini olish borasida shug'ullanadi. O'zbekistonda UNFPA Xotin-qizlar qo'mitasi, nodavlat notijorat tashkilotlari va mahalliy hamjamiyatlar bilan hamkorlikda erta turmush qurishning salbiy oqibatlaridan xabardorlikni oshirish, o'smir qizlar va o'g'il bolalarni reproduktiv salomatlik va huquqlar masalalari bo'yicha o'qitish maqsadida ish olib boradi. Xalq ta'limi vazirligi tomonidan „Mustahkam oila“, „Ahil oila“, „Hayotga qo'shil“, „Ijobiy fikrlashni o'qitish“ kabi targ'ibot ishlari olib boriladi. O'smir qizlarga yordam berish maqsadida oila, mahalla, gender, xotin-qizlar, ularni tadbirkorlik masalalari bilan bog'liq mas'ul tashkilotlar tomonidan shlab chiqilgan 120 mingdan ortiq qo'llanmalar hududlarga yetkazib berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O'quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. “Xalq ta'limi” jurnali. 2005. №5. 90-93-b.
3. Maxmudova .D. “O'quvchilarni kasbga yo'naltirishga oid pedagogik faoliyat elementlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash”. Xalq ta'limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.
4. www.ziyonet.uz